



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

Annotatsiya

So'nggi yillarda yurtimizda tadbirkorlikka e'tiborning qaratilishi natijasida tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalariga nom tanlashda nafaqat so'zlarning jozibadorligi, balki ularning ma'noviy xususiyatlariga, har bir so'zning o'zbek jamiyati an'alariga mosligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Noto'g'ri tanlangan nom taklif etilgan tovar yoki xizmatning omadsizlikka yuz tutishiga sabab bo'lishi mumkin.

Omadsiz ergonimlar tushunchasini batafsil izohlash uchun, avvalo, omadli ergonim birikmasini tushunish lozim. Yetarli darajada puxta o'ylangan, umumiy qoidalarga muvofiq keladigan, kishida teskari kayfiyat uyg'onishiga sabab bo'lmaydigan nomlar omadli ergonimlar sifatida qaraladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan omadsiz ergonimlarning paydo bo'lishida ma'lum bir hududda yashovchilarning etnik, diniy, milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olmagan holda nomlardan foydalanish, xizmat turi hamda mahsulotlar savdosiga nomuvofiq nomlarning tanlanishi, so'z yoki shakllar tanlanganda, ular ifodalaydigan ma'noni tushunmasdan nomlash kabi holatlar sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: ergonimlar, omadsiz ergonimlar, marketologiya, brend, milliynom.uz, so'z yasalishi.

Unlucky Ergonomics

Abstract

In recent years, as a result of the increased attention to entrepreneurship in our country, when choosing names for manufacturing enterprises, trade and service outlets, special attention should be paid not only to the attractiveness of words, but also to their spiritual properties, and to the correspondence of each word to the traditions of Uzbek society. An incorrectly chosen name can lead to the failure of the proposed product or service.

To explain in detail the concept of unfortunate ergonyms, it is first necessary to understand the combination of successful ergonyms. Names that are sufficiently well thought out, comply with general rules, and do not cause a person to have a negative mood are considered successful ergonyms.

From a linguistic point of view, the emergence of unfortunate ergonyms is caused by the use of names without taking into account the ethnic, religious, and national-cultural characteristics of the inhabitants of a particular region, the selection of names that are inappropriate for the type of service and product sold, and the selection of words or forms without understanding the meaning they convey.

* Mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, akbar2683@umail.uz

Keywords: ergonyms, unsuccessful ergonyms, marketing, brand, millynom.uz, word formation.

To'g'ri nomning tanlanishi savdo yoki boshqa xizmatlarning jozibadorligini oshirish bilan birga, faoliyatning jadallashishi, qulay vaziyatlarni yaratish uchun muhr vazifasini o'taydi. Ammo yurtimizda so'nggi yillarda iqtisodiy munosabatlar kuchayishi va keskin raqobat fonida tadbirkorlar tomonidan o'z mahsulotiga jozibador eshitilgan, ayniqsa xorijiy so'zlardan tashkil topgan nomlarni berishga intilib, mazkur so'zlar zamiridagi ma'noning taklif etilgan mahsulot yoki xizmatga mosligini e'tibor qaratmay qo'yish holatlari kuzatilmoqda.

Natijada esa tanlangan nom ma'nosiga ko'ra omadsizlikka uchrab, xaridorlar, jamoatchilik e'tiroziga sabab bo'lmoqda hamda bu holat mahsulot tijoratiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Omadsiz ergonimlar tushunchasini batafsil izohlash uchun, avvalo, omadli ergonim birikmasini tushunish lozim. Xo'sh, ergonimlar omadli bo'lishi uchun qanday shartlar bajarilishi lozim:

1) muassasa, tashkilot, korxona faoliyatiga to'la muvofiq kelishi, nom xizmat yoki savdo mahsuloti xususiyatlarini o'zida aks ettira olishi shart;

2) mashhur, brend darajasiga chiqqan nomlardan foydalanish mijozlarni jalb etishga ko'maklashishi;

3) qanday nom tanlanishidan qat'i nazar xizmat hamda savdo turi bo'yicha yuqori darajadagi xizmat ko'rsatilishi.

Xullas, yetarli darajada puxta o'ylangan, umumiy qoidalarga muvofiq keladigan, kishida teskari kayfiyat uyg'onishiga sabab bo'lmaydigan nomlar omadli ergonimlar sifatida qaraladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan omadsiz ergonimlarning paydo bo'lishida quyidagi holatlar asos bo'lishi mumkin:

1) ma'lum bir hududda yashovchilarning etnik, diniy, milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olmagan holda nomlardan foydalanish: "*Gefest halol nasiya*" *maishiy texnikalar do'koni*. Do'kon izoh qismida islom dini tijorat qoidalari asosida savdo qilinishiga urg'u qaratilgan bo'lsa-da, do'kon nomi boshqa bir dinga tegishli ilohning nomi. Ya'ni Gefest qadimgi yunon mifologiyasida temirchilik ilohi va homiysidir. Islomda esa Allohdan boshqa ilohni ko'rsatish shirk sanaladi;

2) xizmat turi hamda mahsulotlar savdosiga nomuvofiq nomlarning tanlanishi: "*Gulliver*" *tungi klubi*. Gulliver – ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning qahramoni, oddiy dengizchi bo'lgan, sayohatlari davomida ham yolchib dam ololmagan. Shu bois dam olish, o'yin-kulguga mo'ljallangan joyning aynan Gulliver nomi bilan atalgani kishini o'ylantiradi;

3) soʻz yoki shakllar tanlanganda, ular ifodalaydigan maʼnoni tushunmasdan nomlash: *“Biz ochildik”*. Rus tilidagi *“Мы открылись”* jumlasini toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilishdan hosil boʻlgan. Ammo shu oʻrinda soʻzlashuv nutqida shaxsga nisbatan *“ochilmoq”* soʻzi feʼli vitoligo kasalligiga chalingan kishilarga nisbatan ishlatilish eʼtiborga olinmagan. Mazkur jumlaning *“Biz ish boshladik”* tarzida ifodalash mumkin.

“Iffatli kelin” oʻquv markazi. *“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”*da *iffat* soʻziga bokiralik, pokizalik [110; 469] degan taʼriflar berilgan. Shu maʼnoda iffatli sifatini turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan ishlatish oʻrinlidir.

“Xadicha” muslima ayollar kiyimi (Koʻpgina kiyimlari homilador ayollarga moʻljallangan). Garchi Xadicha nomi paygʻambarning birinchi ayollari sifatida anchayin mashhur boʻlsa-da, bu ismning lugʻaviy maʼnosi *muddatidan oldin, chala tugʻilgan* kabi tushunchalarni anglatadi.

Soʻnggi yillarda jamiyatda diniy erkinlikning taʼminlanishi aholida oʻz eʼtiqodiy qarashlarini ochiqchasiga ifodalash imkonini bermoqda. Ana shunday hollarda ayrim tadbirkorlar tomonidan mahsulotining bozorgiriligini oshirish maqsadida aholining diniy eʼtiqodidan foydalanishga urinish, oʻzi tushunmagan diniy atamalarni mahsulot yoki xizmat nomiga aralashtirish holatlari ham kuzatilmoqda:

Buxoro shahridagi Dubay (Birlashgan arab amirligi) matolari savdosi bilan shugʻullanuvchi doʻkon *“Zabur”* deb nomlangan. Zabur yahudiylarning muqaddas kitobi boʻlib, yahudiy shoh va paygʻambar Dovudga nozil qilingan. Koʻrinib turibdiki, doʻkon faoliyat turining diniy xizmatlarga aloqasi yoʻq. Mahsulot va nom geografiyasida ham bogʻliqlik mavjud emas.

Ayrim doʻkonlar, ovqatlanish shoxobchalarida *“Halol”* soʻzining oʻzbekcha va arabcha yozuvi tushirilgan tasvirlar koʻpayib bermoqda. Oʻzga din vakillari koʻpchilikni tashkil etadigan Yevropa, Amerika qitʼalari, Xitoy, Hindiston singari mamlakatlarda bu kabi yozuvlar oʻzini oqlashi mumkin. Negaki Islom dinida halol deb koʻrsatilmagan ayrim jonivorlar goʻshti ushbu mamlakatlarda isteʼmol qilinadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur mamlakatlarda musulmon eʼtiqodidagi oshxonalarni alohida koʻrsatish uchun *“Halol”* soʻzi tushirilgan yorliqlarga ehtiyoj mavjud. Ammo oʻzbek jamiyatida *“halol”* atamasi ovqatlanishdan kengroq tushunchalarni oʻzida ifodalaydi. *“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”*da *“halol”* soʻziga shunday izoh beriladi: *Halol – [a. حلال – ruxsat etilgan, yoʻl qoʻyilgan; qonuniy, asosli; toʻgʻri, vijdonli odam] 1 din. Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa boʻladigan; harom emas. Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol boʻlsin... A.Qahhor, “Qoʻshchinor chiroqlari”... 2.Koʻchma. Kishining oʻziga qarashli, oʻz mehnati bilan, peshona teri toʻkib topilgan; xiyonat, gʻirromlik kabilardan xoli. Mahfuza endi qingʻirlikni tashlar, bolalarini halol pul bilan boqib, voyaga yetkazar... Gazetadan. Mening halol mehnatim uchun soʻmlab, tiyinlab bergan edingiz.*

Sh.Xolmirzayev, "Qariya". 3. Ko'chma. G'irromlikka o'rganmagan, g'irromlikdan xoli, qing'ir yo'lga bormaydigan, birovni aldamaydigan; to'g'ri, sofdil. Halol kishi. — Kolxoz raisi umri yetimlik bilan o'tgan halol odam. Sh.Rashidov, "Bo'rondan kuchli". [Zargarov:] Bechora Oqila o'zi juda halol, mehnatkash, bolalarga juda mehribon ayol. A.Qahhor, "Og'riq tishlar". Azaliy xalqing bor bir el qatori, Tanti-yu mehnatkash, to'g'riso'z, halol. A.Oripov, "Yillar armoni". 4. Vijdonan, to'g'rilik bilan. Jon-dilidan halol ishlaydigan odamlar bilan inoq... R.Fayziy, "Cho'lga bahor keldi". To'g'ri tut ishingni va halol yasha! Shuhrat. 5. Nikohlab olingan, qonuniy (xotin haqida). Birovning halolini birov suyardigan zamon ekan-da, vodarig'? S.Siyoyev, Otliq ayol. O'zining bir emas, ikkita xotini bo'la turib, tag'in bir yigitning haloliga ko'z olaytirish... A.Qodiriy, O'tgan kunlar. 6 sprt. O'zbek kurashida sof g'alabaga beriladigan baho. - Halol! – baqirib yubordi Sharif chavandoz. – Buni yiqitish deydi-da!.. N.Eshonqul, "Yalpiz hidi"[110; 299].

Ayrim do'kon va ovqatlanish shoxobchalarida "halol" yozuvining o'rnatilishi boshqa shunday xizmat ko'rsatish subyektlariga nisbatan, sening mahsuloting "halol emas", degan ishoraga o'xshab qoladi.

4) nomlar imlosida xatoliklarga yo'l qo'yish yoki atayin buzib qo'llash: "Maftoon" oshxonasi, "Karakul ta'lim" o'quv markazi, "Gavxar" go'zallik saloni, "Xar doim xizmatigizda". Qimmatbaho tosh nomidagi **h** harfining **x** ga aylanishi orqali so'z ma'nosi haqorat tusiga aylanib qolgan (forscha gav – ho'kiz, xar – eshak). Yoki to'y-marosimlarni o'tkazuvchi san'atkorlar tomonidan e'londagi bir harfning noto'g'ri qo'llanishi "Eshak doim xizmatigizda" degan ma'noni ifodalashiga sabab bo'lgan.

5) ko'pincha, nom tanlashda, savdo va sanoat korxonalari egalari rus, ingliz yoki boshqa chet tilidagi so'zlarni afzal ko'radilar. Bu ularga o'zbekcha muqobildagi so'zlarga qaraganda jozibali va qiziqarli ko'rinadi. Ko'pincha bu mavhum tushunchalar bo'lib, ular chaqiradigan obyektlar bilan unchalik aloqasi yo'q: Ramzes – tungi klub, Angel kids – oshxona, Jiguli – pivoxona.

Tashqi yozuvlar matnlarida ishlatiladigan xorijiy tildagi so'zlarda tez-tez uchraydigan imlo xatolariga alohida e'tibor qaratish lozim. Misol uchun, ba'zi o'rinlarda ulgurji ma'nosidagi "Optom" so'zi lotin alifbosida talaffuzga moslashtirilgan holda "O'ptim" tarzida yozilgan.

Omadisiz ergonimlarning paydo bo'lishi uchun lingvistik nuqtayi nazardan quyidagi omillar asos bo'lishi mumkin:

1) o'z ichki imkoniyatlari asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar nomlarini o'zlashma birliklar nomi bilan atash;

2) yetarlicha o'ylanmagan, nomlanish uchun hech qanday asosga ega bo'lmagan nomlarning qo'llanilishi;

3) lingvistik bilimning yetishmasligi yuzaga kelgan qo'llanishlar;

4) mazmunan zid bo'lgan nomlarning tanlanishi;

5) o'z qatlamga oid birliklarning mavjudligini hisobga olmagan holda o'zlashma birliklardan foydalanish.

Ergonimning omadli yoki omadsiz bo'lishi xalqning savodxonlik darajasiga ham bog'liq. Asl nomdan ko'r-ko'rona xabardorlik, u haqidagi ma'lumotlarga aniq ega bo'lmaslik natijasida tanlangan nom orqali tadbirkor noqulay ahvolga tushib qoladi. Shu bois Buxoro viloyati ergonimikasida uchrayotgan muammolar va ularni hal etish borasidagi takliflar jadval tarzida taqdim etiladi:

Jadval

Buxoro viloyati ergonimikasida uchrayotgan muammolar va ularni hal etish borasidagi takliflar

Muammolar	Takliflar
Viloyatdagi ergonimlar, xususan, do'konlar peshtoqidagi peshlavhalarda davlat tili qonunchiligi talablarini buzish holatlariga qonunchilikda jazo mexanizmining aniq nazarda tutilmaganligi sabab bo'lmoqda.	“Davlat tili haqida”gi qonunga o'zgartirish kiritish yoki boshqa me'yoriy qonunosti hujjatini qabul qilgan holda savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalari peshlavhalari va axborot lavhalarining yagona standartini belgilash, unda davlat tili talablariga rioya qilinmagan taqdirda javobgarlikka tortuvchi tashkilot va mexanizmlarini ko'rsatish.
Olinma ergonimlar asosan xususiy sektorga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari nomlarida uchramoqda. “Firma nomlari to'g'risida”gi qonunda ushbu muassasalar nomlari tili haqida band mavjud emas.	“Firma nomlari to'g'risida”gi qonunning yangi tahririni qabul qilish hamda ularni davlat tilida nomlashni majburiy band sifatida belgilash. Bunda aholiga qulaylik yaratish maqsadida Adliya vazirligining tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi Davlat xizmatlari markazi bazasiga milliynom.uz platformasini integratsiya qilish.
Ergonimlar tarkibida uchrayotgan ajnabiy so'zlarga ko'p holatda o'sha xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan terminlarning o'zbekcha muqobili mavjud emasligi yoki rasman qabul qilinmaganligi sabab bo'lmoqda.	Bu borada muammo ko'p kuzatiladigan qurilish jihozlari va mollari (<i>apalovka, lesa, badya, shlyakablok, drel, bruschatka va b.q.</i>), avtomobillarga xizmat ko'rsatish (<i>razval sxojdeniye, remont xodovoy, chexol-polik, obmotka, vulkanizatsiya, karcherva b.q.</i>), go'zallik saloni xizmatlari (<i>manikyur, pedikyur, rastushovka, bigudi, ukladka, botoks va h.k.</i>), orgtexnika ta'miri (<i>proshivka,</i>

	<i>laminatsiya</i> va h.k.), maishiy jihozlar (<i>jalyuzi, santexnika, smestitel, rokovina</i> va h.k.)ning davlat tilidagi rasmiy muqobilini ishlab chiqish.
--	---

Umuman, so‘nggi yillarda yurtimizda tadbirkorlikka e‘tiborning qaratilishi natijasida tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalari, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalariga nom tanlashda nafaqat so‘zlarning jozibadorligi, balki ularning ma‘naviy xususiyatlariga, har bir so‘zning o‘zbek jamiyati an‘analariga mosligiga alohida e‘tibor qaratish lozim.